

5. Махмудова Хамида Ахюловна Сохранение национальной идентичности в период глобализации мировых процессов // Вестник науки и образования. 2019. №9-3 (63). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sohranenie-natsionalnoy-identichnosti-v-period-globalizatsii-mirovyh-protsessov> (дата обращения: 07.01.2025).
6. Karayeva F. IJODKOR SHAXSNING BADIYIY DID VA AXLOQIY MADANIYATI // Interpretation and researches. – 2023. – Т. 1. – №. 15.
7. Мадримов Q. и др. ИЖОДКОР ТАРБИЯСИДА ЭТИКА // Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 656-661.
8. Qobilov X. N. AKTYORLIK MAHORATI VA REJISSURA MASALALARI // Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 251-255.
9. Karayeva F. REJISSYOR VA AKTYOR HAMKORLIGI // Interpretation and researches. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 18-22.
10. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati // Tafakkur qanoti" nashriyoti Toshkent-2014. – 2011.
11. Тангриева Д. КИНОДА САНЪАТИДА АКТЁРЛИК МАНОРАТИ // Oriental Art and Culture. – 2021. – №. 6. – С. 71-78.

РЕЗЮМЕ. Мақола Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, профессор, меҳрибон устоз Абдурахим Сайфиддиновнинг хотирасига бағишланади. А.Сайфиддиновнинг кўп йиллик саҳна нутқи ва актёрлик маҳорати кафедраларидаги педагогик фаолияти, илмий ва ижодий изланишларига алоҳида эътибор қаратилади.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена памяти Заслуженного работника культуры Узбекистана, профессора, доброго наставника Абдурахима Сайфиддинова. Особое внимание уделяется его многолетней педагогической деятельности на кафедрах сценической речи и актёрского мастерства, а также его научным и творческим изысканиям.

SUMMARY. The article is dedicated to the memory of Abdurahim Sayfiddinov, Honored Cultural Worker of Uzbekistan, professor, and caring mentor. Special attention is given to his many years of pedagogical work in the departments of stage speech and acting, as well as to his scientific and creative research.

ANIMATSION FILM ISHLAB CHIQRISH JARAYONIDA BAKALAVR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Hojimatov Doston Hamidulla o'g'li – *katta o'qituvchi*
O'zDSMI, "Kino, televideniye va rejissyorligi" kafedrası mudiri v.b.

Tayanch so'zlar: animatsion kino, bakalavriyat ta'limi, kompetensiya modeli, kadrma-kadr animatsiya, timing, vizual ritm, dramaturgiya, 2D, 3D, stop-motion, pedagogik metodologiya.

Ключевые слова: анимационное кино, бакалавриат, модель компетенций, покадровая анимация, тайминг, визуальный ритм, драматургия, 2D, 3D, stop-motion, педагогическая методология.

Keywords: animation film, undergraduate education, competency model, frame-by-frame animation, timing, visual rhythm, dramaturgy, 2D, 3D, stop-motion, pedagogical methodology.

Kirish. Animatsion kino rejissurasi zamonaviy kinematografiyada o'ziga xos metodologik va estetik pozitsiyaga ega bo'lib, u real voqelikdan farqli o'laroq sun'iy yaratilgan vizual muhit orqali hikoya va dramaturgiyani ifodalaydi.

Ushbu yo'nalish 2D, 3D, stop-motion va raqamli animatsiya kabi texnologik

platformalarda kadrma-kadr vizual konstruksiyani yaratishga qaratilgan bo'lib, talabalarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Animatsion filmning ishlab chiqarish jarayoni – bu nafaqat texnik va texnologik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, balki kreativ qarorlar, vizual estetika va dramaturgik tuzilmani kompleks

ravishda uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, animatsion kino bakalavriyat ta'limida nazariy va amaliy kompetensiyalarni tizimli shakllantirishning asosiy obyekti hisoblanadi.

Bakalavriyat bosqichida animatsion kino rejissurasini o'qitishning pedagogik zaruriyati talabalarga sun'iy vizual muhitni boshqarish, kadrma-kadr animatsiyani loyihalash va vizual konstruksiyani timing va ritm asosida shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu yo'nalish talabalarni estetik qaror qabul qilish, film tilini vizual yondashuvlar orqali ifodalash va texnologik jarayonlarni nazorat qilish ko'nikmalari bilan boyitadi. Shu tarzda, animatsion kino ta'limi nafaqat texnik jihatdan, balki nazariy, kreativ va metodologik asosda ham dolzarb hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bakalavriyat ta'limida animatsion kino kompetensiyalarini tizimli shakllantirish va standartlashtirish hozirgi kinematografik, texnologik va pedagogik ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola bakalavriyat bosqichida animatsion kino rejissyorining kompetensiya modelini ilmiy asosda aniqlash, uning ishlab chiqarish, vizual til va pedagogik komponentlarini tasvirlash va xalqaro kino maktablari tajribasini integratsiyalash imkoniyatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Nazariy asoslar. Bakalavriyat ta'limida Thomas va Johnstonning "The Illusion of Life: Disney Animation" asaridagi "12 asosiy animatsiya tamoyili" animatsion filmning texnik va estetik jihatlarini tushunishda poydevor vazifasini bajaradi. [1.546] uksiya va dramaturgiya bilan bog'liqligini tushuntirishda ilmiy asos vazifasini bajaradi. Bu manba talabalarga filmning vizual tili, kadr ritmi va timingni o'rganish orqali o'z ijodiy qarorlarini rivojlantirish imkonini beradi, shuningdek, animatsion sahnalarni kompozitsion va dramatik jihatdan samarali shakllantirishga yordam beradi.

John Lasseterning asari 3D animatsiya va rigging asoslarini, shuningdek timing va kadr ritmini o'rganishda ilmiy asos vazifasini bajaradi. [2.127] Ushbu manba talabalarni kadrma-kadr animatsiya tamoyillarini amaliy qo'llashga o'rgatadi va vizual-harakatlarni dramatik va estetik jihatdan samarali yaratish

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bordwell va Thompsonning "Film Art: An Introduction" asari kino tili va dramaturgik tuzilmani tushunishda ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ushbu manba talabalarga filmning kadr kompozitsiyasi, montaj va kameraning dramatik roli orqali vizual hikoya tilini o'rganish va o'z ijodiy qarorlarini shakllantirish imkonini beradi. [3.544] Piagetning "The Psychology of Intelligence" asari talabalarning ijodiy va vizual-matematik fikrlashini rivojlantirishda ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ushbu manba kognitiv rivojlanish va muammolarni hal qilish qobiliyatini o'rganish orqali talabalarni animatsion film yaratish jarayonida analitik va kreativ qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. [4.204] O'zbekiston, Rossiya, Yevropa va AQSHning animatsion kino maktablarida bakalavriyat bosqichida 2D, 3D va stop-motion yo'nalishlari alohida mutaxassislik sifatida ajratilgan. Pedagogik metodlar doirasida master-klasslar, amaliy loyihalar, simulyatsion mashg'ulotlar va xalqaro tajribalarni integratsiyalash talabalarning kreativ va texnik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kompetensiya yondashuvi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishni ta'minlaydi va talabalarga professional, texnologik va estetik jihatdan kompleks tayyorgarlik beradi.

Metodologiya

Bakalavriyat ta'limida animatsion kino rejissurasini o'qitish metodologiyasi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, talabalarni kadrma-kadr animatsiya, timing, vizual ritm, kadr kompozitsiyasi va dramaturgik tuzilmani tushunishga o'rgatadi. Ushbu yondashuv talabalarni 2D, 3D va stop-motion animatsiya platformalarida texnik, estetik va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltiradi, vizual-matematik fikrlash, analitik qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, xalqaro animatsion maktablar tajribasi integratsiyalash orqali talabalarga global standartlarga mos tayyorgarlik berish va real animatsion film ishlab chiqarish jarayonida bilim va ko'nikmalarni amaliyotda

qo‘llash imkonini yaratadi. Animatsion kino rejissura kompetensiya modeli. Animatsion kino kompetensiya modeli bakalavriyat ta‘limida talabalarning professional, texnik va estetik tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiladi. Model uchta asosiy blokdan iborat:

- nazariy kompetensiyalar;
- amaliy/texnik kompetensiyalar;
- ijodiy/kommunikativ kompetensiyalar.

Nazariy blok kino tilining tamoyillari, vizual konstruksiya, dramaturgiya va timing konseptlarini qamrab oladi. Amaliy/texnik blok 2D, 3D, stop-motion va raqamli animatsiya platformalarida kadrma-kadr animatsiya yaratish, sahna bezagi, rigging, modeling va vizual effektlarni integratsiyalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ijodiy va kommunikativ blok esa talabalarning kreativ qarorlar qabul qilish, loyiha boshqaruvi, jamoaviy ishlash va professional etika ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kompetensiya modeli indikatorlarga asoslangan baholash tizimini o‘z ichiga oladi, bunda har bir blok bo‘yicha talabaning nazariy, amaliy va ijodiy ko‘rsatkichlari rivojlanish rejasini ishlab chiqish va pedagogik jarayonni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, model xalqaro kino maktablari – O‘zbekiston, Rossiya, Yevropa va AQSH tajribasini hisobga olgan holda talabalarga global standartlarga mos tayyorgarlikni ta‘minlaydi. *Amaliy texnik kompetensiyalar* talabaning texnologik jarayonlarni puxta egallashi va animatsiya ishlab chiqarishning funksional bosqichlarini izchil boshqarish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur kompetensiyalar, avvalo, 2D, 3D va stop-motion texnologiyalarida kadrma-kadr harakat yaratish tamoyillari, timing va spacing nazariyasi, kamera simulyatsiyasi, fazoviy kompozitsiya, hamda animatsion mizansenani loyihalash bo‘yicha amaliy malakalarni qamrab oladi.

Talabalar animatsiya dasturlari (Adobe Animate, Toon Boom Harmony, Blender, Maya va boshqalar) bilan ishlash, storyboard, animatik va layout jarayonlarini mustaqil ravishda amalga oshirish orqali texnik bilish darajasini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Shuningdek, texnik kompetensiyalar animatsion xarakterning harakat mantig‘ini

tahlil qilish, vizual ritmni boshqarish, kadr davomiyligini hisoblash, hamda render, light va digital compositing jarayonlarining asosiy parametrlari bilan ishlay olishni ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayonda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni laboratoriya mashg‘ulotlari, kichik animatsion sahnalar yaratish, animatik montaji va ishlab chiqarish pipeline‘ining har bir bosqichini amaliy bajarish orqali baholanadi. Natijada talaba animatsion film rejissyori sifatida texnik jihatdan izchil, vizual asoslangan va ishlab chiqarish jarayonining barcha mexanizmlarini anglaydigan professional malakalarga ega bo‘ladi. *Ijodiy kommunikativ kompetensiyalar* talabaning badiiy fikrlash darajasini, kontseptual qaror qabul qilish qobiliyatini va professional jamoasi bilan samarali muloqot yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur kompetensiyalar, birinchi navbatda, vizual konsepsiya yaratish, obrazlar tizimini badiiy asoslash, estetik tanlovlar qilish, hamda animatsion xarakterlarning dramatik funksiyasini aniqlash kabi ijodiy faoliyat elementlarini o‘z ichiga oladi. Talabalardan g‘oya ishlab chiqish, stilistik yechimlar tanlash, rang va yorug‘lik orqali kayfiyat yaratish, shuningdek, dramaturgik struktura doirasida sahnalararo izchillikni ta‘minlash kabi jarayonlarda o‘z ijodiy pozitsiyasini ifodalash talab etiladi. Kommunikativ kompetensiyalar esa animatsion ishlab chiqarishning jamoaviy xarakteridan kelib chiqadi. Talaba ssenariy muallifi, animator, dizayner, operator, montajchi va ovoz rejissyori kabi mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilish, o‘z rejissyorlik fikrini aniq va asosli yetkazish, loyiha bo‘yicha umumiy badiiy viziyaning boshqarish va muhokamalar jarayonida konstruktiv muloqot yuritish ko‘nikmalarini egallashi lozim. Ushbu kompetensiyalar pitching, storyboard taqdimotlari, jamoaviy loyihalar va rejissyorlik ko‘rsatmalarini ishlab chiqish orqali amalda mustahkamlanadi. Natijada ijodiy/kommunikativ kompetensiyalar talabaning animatsion film rejissyori sifatida mustaqil badiiy qaror qabul qilish, jamoaviy jarayonni boshqarish va professional muhitda samarali kommunikatsiya o‘rnatish qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa. Bakalavriyat ta'limida animatsion kino rejissurasining kompetensiya modeli talabalarning professional, texnik, ijodiy va estetik jihatdan kompleks tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiladi. Nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarga kadrma-kadr vizual konstruksiya yaratish, timingni boshqarish va dramaturgik tuzilmani integratsiyalash imkoniyati beriladi. Shu tarzda, kompetensiya modeli talabalarning sun'iy yaratilgan muhit bilan ishlash qobiliyatini va vizual tilda estetik qaror qabul

qilishini mustahkamlaydi. Modelning amaliy tatbiqi master-klasslar, amaliy loyihalar, simulyatsion mashg'ulotlar va xalqaro tajribalarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Talabalar real animatsion film ishlab chiqarish jarayonida o'z kompetensiyalarini rivojlantiradi, jamoaviy ishlash va loyiha boshqaruvi ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, pedagogik jarayon ularning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va kompetensiyalarni tizimli tarzda baholash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Thomas, O.Johnston. The Illusion of Life Disney animation. – New York.: Walt Disney Productions. 1981. P.546.
2. P.Wells. Understanding Animation. – London.: Routledge Taylor. Francis group. 1998. P.271.
3. J.Lasseter. Toy story: the art and making of the animated film. - USA.:Hyperion. 1995. C. 127.
4. D.Bordwell. K.Thompson. Film art: an introduction. – New-York.: Incorporated. 2009. P. 544.
5. J.Piaget. The Psychology of Intelligence. – London.: La psychologie de l'intelligence first published. 1947. P.204.

REZYUME. Maqola bakalavriyat ta'limida animatsion kino rejissurasini o'qitishda talabalarning nazariy, amaliy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasini tahlil qiladi. Taklif etilgan kompetensiya modeli 2D, 3D va stop-motion platformalarida kadrma-kadr animatsiya, timing va vizual ritmni shakllantirishga, shuningdek, jamoaviy ishlash va kreativ qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. Статья анализирует методологию развития теоретических, практических и творческих компетенций студентов при обучении режиссуре анимационного кино на уровне бакалавриата. Предложенная модель компетенций способствует формированию покадровой анимации, тайминга и визуального ритма на платформах 2D, 3D и stop-motion, а также развитию навыков командной работы и принятия креативных решений.

SUMMARY. The article analyzes the methodology for developing students' theoretical, practical, and creative competencies in teaching animation film directing at the undergraduate level. The proposed competency model supports the creation of frame-by-frame animation, timing, and visual rhythm on 2D, 3D, and stop-motion platforms, as well as the development of teamwork and creative decision-making skills.